



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 5**

**2026**

## **MILLIY EKOLOGIK QADRIYATLARNI BADIY ADABIYOTDA NAMOYON BO‘LISHI**

**Xudaynazarov Samad Xudayberdiyevich**

O‘zbekiston Milliy universiteti, dotsent

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada milliy ekologik qadriyatlar va ularning badiiy adabiyotda namoyon bo‘lishi, azaliy-an’anaviylik mohiyati, uning tarixiy ildizlari, keyingi taraqqiyot bosqichlaridagi ahamiyati va o‘zaro aloqadorligi yaqqol misollar vositasida yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** ekologiya, qadriyat, badiiy adabiyot, milliy ekologik qadriyat, milliy adabiyot.

## **ОТРАЖЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ**

**Худайназаров Самад Худайбердиевич**

Национальный университет Узбекистана, доцент

### **Аннотация**

В данной статье рассматриваются национальные экологические ценности и их отражение в художественной литературе, их исконно-традиционная сущность, исторические корни, значение на последующих этапах развития, а также их взаимосвязь, раскрытая на конкретных примерах.

**Ключевые слова:** экология, ценность, художественная литература, национальные экологические ценности, национальная литература.

## **THE REPRESENTATION OF NATIONAL ECOLOGICAL VALUES IN FICTION**

**Khudaynazarov Samad Khudayberdiyevich**

National University of Uzbekistan, Associate Professor

### **Abstract**

This article examines national ecological values and their representation in fiction, highlighting their traditional nature, historical roots, significance at various stages of development, and interrelations through illustrative examples.

**Keywords:** ecology, value, fiction, national ecological values, national literature.

Azal-azaldan badiiy adabiyot o‘zida milliy va umumbashariy qadriyatlarni, jumladan, milliy ekologik qadriyatlarni badiiy timsollar orqali ifodalab, jamiyat kishilarini tabiat bilan sog‘lom munosabat sarhadlariga hamisha beminnat da‘vat etib kelgan.

Badiiy adabiyot qadriyatlar olamining badiiy ko‘zgusi bo‘lib, bu ko‘zguda aks etgan tasvirlarning tarixiy genezisi, retrospektiv asoslarining tub ildizlari juda qadimiylikka tutashib ketgan. Bu borada fikr yuritganimizda ko‘z o‘ngimizda og‘zaki va yozma adabiyotning mumtoz namunalariidagi ekologiyaga daxldor milliy, mintaqaviy, umumbashariy qadriyatlar silsilasini o‘zida mujassamlashtirgan so‘z san‘atining tasvir va ta‘sir imkoniyatlari gavdalanadi.

Turli zo‘ravon mafkuralardan xoli ekologik ruhdagi og‘zaki va yozma badiiy adabiyot azal-azaldan ishoraviy badiiy til, obrazlilik orqali insoniyatni ekologik ogohlikka, hushyorlikka, ehtiyotkorlikka, halim-hazimlikka, insof-diyonatga, oqilonalikka chorlash orqali, bir tomondan, ekologik qadriyatlarni targ‘ib-tashviq etsa, ikkinchi tomondan, uni badiiy bo‘yoqlar jilvasida aks ettirish orqali inson qalbiga tabiatga nisbatan iliqlik, rushnolik, shaydolik, oshnolik, mehr-oqibat, hurmat kabi etik va estetik go‘zal sifatlarni, yuksak ma‘naviy-madaniy mas‘uliyat hislarini olib kiradi, uchinchi tomondan esa insonni antiekologik xatti-harakatlardan, agressiv qilmishlardan, zug‘um-zo‘ravonlikdan tiyilishga, tabiat mulkini talon-taroj qilmaslikka, payhon-u g‘orat etmaslikka undasa, to‘rtinchi tomondan, sababiy oqibatlar natijasida ro‘y berishi mumkin bo‘lgan ekologik halokatlardan bashariyatni ogoh etish orqali necha ming yilliklar davomida misqolab to‘plangan, hayot sinovlaridan o‘tib toblangan ekologik qadriyatlarining qadrsizlanishining oldini olishga beminnat xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Badiiy adabiyot badiiy timsollar vositasida yuksak ekologik qadriyatlarni antiekologik holat, harakat va qarashlarga qarshi qo‘yib, tabiatga, uning mulkiga nisbatan manmanlik, kibr-havo, zug‘um, isrof va nobudgarchilik, kaltabinlik, agressiya kabilarning tuzatib bo‘lmas, ortga qaytmas salbiy oqibatlaridan bani bashariyatni barvaqt ogoh etib, “Xo‘jayosh” [1] qismatiga duchor

bo'lishdan saqlanishga, tiyilishga chorlaydi. Aksincha, "so'nggi pushaymon — o'zingga dushman" deganlaridek, qilg'ilikni qilib, keyin "kechikib aytilayotgan istig'fordan, achchiq tavba-tazarrudan endi hech qanday foyda yo'q" [1] ligini ko'rsatishdek muhim funksiyani ham bajaradi.

Nisbatan keyingi yuz yilliklarda yuz berayotgan ekologik tanglik, halokatlar faqat taqdirninggina shum inoyati bo'lmasdan, balki insoniy qilmishlarning oqibati ekanligini boshidanoq so'z san'ati — badiiy adabiyot tasvirlab bera olgani ham haqiqat. Zero, tabiat tabiiyligini qadrlagan, boriga shukur, qanoat qilgan elning kamol va qadr topishi, aksincha, teskarisi borasidagi tendensiyalar adabiyotning azaliy mavzu-masalalaridan bo'lib kelgan.

Tabiat mulkiga nisbatan faqat va faqat iste'molchilik, bebosh sayd-ovchilik, o'zi to'ysa ham ko'zi to'ymaslik dardiga muhtalolik, yulg'ichlik, loqaydlik, uquvsizlik, bemehrlik, ilmsizlik, boylik orttirish ilinji kabi insoniy hirs kasofatining hunuk oqibatlariga giriftor aylashi borasida erta bong urish, ogoh etish hamma davrlarda ham haq kuychisi — badiiy so'z san'atining hamisha e'tiborida, e'tirofida, nishonida bo'lib kelgan.

Modomiki, tabiat tabiiyligini qo'pol tarzda buzish, uning ishlariga bilib-bilmasdan uquvsiz aralashish, bu boradagi bilim, tajriba, fahm-farosatning sustligi insonga hamisha qimmatga tushgan hamda ekologik tanglik bo'hronlariga, adoqsiz g'am-kulfatlarga darcha ochgan, quvonch-u shodliklar, farovon hayot, sog'lom turmush tarzi kabilarning, shaksizki, kulini ko'kka sovurgan. Bunday fojialar tasviri ayniqsa XX–XXI asr badiiy adabiyotida ham o'z ifodasini topgan. A. Kamyuning "Vabo", Luqmon Bo'rixonning "Jaziramadagi odamlar", Chingiz Aytmatovning "Tog'lar qulayotgan zamon" kabi asarlari ana shular sirasidandir.

Tabiat va inson hamisha uzviylikka, vobastalikka ega. Tabiat o'z ishini bilib qiladi. Undagi barcha narsalar bir-biriga taqozolangan. Agar uning bir butun ekotizimiga putur yetsa, Jaloliddin Rumi hazratlari keltirib o'tganlaridek: "Gul ketsa, guliston qolmagay, so'ngra bulbul birla doston qolmagay" [2]. Darhaqiqat, dunyoning mavjudligi, insonning zavq-shavqi, albatta, so'lim, toza, sog'lom tabiat bilandir. Uning mulkiga putur yetsa, "Xo'jayosh"ning dard-u anduhlari, so'nggi pushaymon insoniyat boshiga tushadi. Zero, "Xo'jayosh afsonasi" badiiy adabiyotning ekologik darsxonasidir.

Tabiatga ziyon, uning jonzotlariga zulm insoniyatga qimmatga tushadi va tuzatib bo'lmas halokatlarga sabab bo'ladi. Muxtor Shoxonov keltirganidek: "Xo'jayosh to'g'risidagi afsona — bu insoniy azob-uqubatlarning yuksak namunasi. Inson vaziyatga har xil nuqtai nazardan baho beradi, har xil tushunadi, lekin fojia ro'y bergandan keyingina haqiqatni tushunib yetadi" [3]. Ammo endi undan nima naf? Shu bois badiiy adabiyot ekologik qadriyatlarining tub ma'no-mazmunidan kelib chiqib, masala mohiyatini "ko'za sinmasdan" burun uni asrashga, himoyalashga da'vat etadi, undaydi.

Zamin yuzidan zamonlar o'taveradi, avlodlar almashinaveradi, biroq ezgu g'oya va qadriyatlar silsilasida ekologik qadriyatlar uni o'zida mujassamlashtirgan adabiy asarlar osha odamlarga sabog'ini aytib, mangu muhrlanib qolaveradi. A. Jomiy ta'biri bilan aytganda: jahon bor bo'lajak — so'z qolajak [4] va shu so'z ila yo'g'rilgan tabiatni asraguvchi qadriyatlar qolajak. Chunki ular doimo inson hayot-mamotini ta'minlagan ona tabiatga insoniy hurmat, ehtrom, shaydolik, dilkash-u dardkashlikni, mehr-muhabbatni, shukronalik va gumanizmning o'lmas bayotlari, g'oyalari, qarashlari, qo'shiqlari, bir go'zal ash'orlari, amaliy shiorlaridir.

Bamisli qalin qorlar ostida kulayotgan yam-yashil ko'klamning ilk elchisi boychechaklar singari milliy ekologik qadriyatlar badiiy adabiyotda, uning tur va janrlarida har bahor-u har yoz, har kuz-u har qish, har yil-u har asrda ham birdek bo'y ko'rsatib, takror va takror namoyon bo'laveradigan hech so'lmas va o'lmas jarangdor zaruriy qadriyatlardir.

Ko'rinadiki, qadriyat va "adabiyot masalasi — bu ma'naviyat masalasidir" [5]. Inson o'z ma'naviyati bilan farishtalardan-da yuksak cho'qqilarga ko'tarila olsa, ekologik qadriyatlariga sodiqlik bilan o'zi yashab turgan ona sayyorasini, uning turfa olamini asrab qola oladi. Aksincha esa, teskarisi.

Milliy ekologik qadriyatlar — Yangi O'zbekiston taraqqiyotining eng muhim omillaridandir. Milliy ekologik qadriyatlarining milliy badiiy adabiyotda namoyon bo'lishi tabiat tabiiyligini asrash, saqlash yo'lidagi eng oqilona, zabardast qadamlardan nishonadir. Chunki buyuk yozuvchi A. Qahhor keltirganidek: "Adabiyotning kuchi — atomdan kuchlidir". Odamning ekologik qarashlari, savodxonligi, tabiatga nisbatan mehr-muhabbatini oshirishda adabiyotning o'rnini bosadigan yana bir qudratli vosita yo'q. Adabiyot inson qalbiga yo'l soladi, undagi insoniy fazilatlarini uyg'otadi.

Natijalar va muhokama. Yangi O'zbekistonda ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash, inson hayotiga ta'sir o'tkazuvchi ekologik muammolarni bartaraf etish, aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish vazifalari [6], atrof-muhitni muhofaza qilish borasidagi tub islohotlar, "Yashil makon"

umummilliy loyihasi doirasidagi miqyosi ulkan ishlar, Orolbo‘yi mintaqasida ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, iqlim o‘zgarishlarining salbiy ta‘sirining oldini olish, biologik xilma-xillikni saqlash [7] va boshqalar borasida amalga oshirilayotgan beqiyos, asrlarga tatigulik amaliy ishlar va ezgu ekologik qadriyatlar bugungi badiiy adabiyotning muhim mavzulariga ko‘chayotganligi va bu adabiyot muxlislari qalbida mustahkam o‘rin olib, to hayotki — ona tabiat boyliklariga boylik qo‘shish ishtiyoqini uchqunlantirib, mas‘uliyat hislarini kuchaytirayotgani, mehrini parvarishlab, ichki bir g‘ayrat-shijoat, himmatini oshirayotganligi, hech bo‘lmasa ekologik g‘aflat uyqusidan uyg‘otayotganligi yanada muhim hayotiy dolzarb ma‘no va mohiyatga egadir.

Hech shaksizki, necha yuz, balki ming asrlarni-da qaritgan, ajdodlar o‘zlariga dasturulamal deb bilgan va badiiylik nuri bilan ziynatlagan milliy ekologik qadriyatlarimiz hamisha insonni ona sayyorani, ona yurtining qaysi go‘shasida istiqomat qilmasin, bu go‘zal, muqaddas makonni bog‘-u bo‘ston, gul-gulzor etmakka chorlab kelgani va hamon chorlayotganligi bilan ham hayratli va xarakterlidir.

Ekologik qadriyatlarning badiiy adabiyotda namoyon bo‘lishining tarixiy evolyutsion asoslari Odam Ato va Momo Havo zamonlariga borib tutashadi desak, balki mubolag‘a bo‘lmas. Qadimgi xalq og‘zaki ijodiyoti namunalarida, keyinchalik shakllangan yozma badiiy adabiyotda insonning tabiatga oqilona munosabatda bo‘lishi zarurligi xususidagi bag‘oyat qimmatli falsafiy, donishmandona ekologik qadriyatlarga xos xususiyatlar uchraydi. Masalan, “Olamning yaratilishi”, “Odamning yaratilishi”, “To‘fon” [8], “Kayumars” [9], “Qaldirg‘och” [10], “Nuh to‘g‘oni” [11] kabilar shular sirasidandir. Badiiylik nuri bilan yo‘g‘rilgan xalqimiz qadimgi mif-afsonalarida, rivoyat-u hikoyatlarida, doston-u qo‘shiqdarida, maqol-u hikmatlarida, topishmog‘-u ertaklarida tabiatni sevish, uni ardoqlab asrash, u bilan uyg‘unlik, hamjihatlik, dildash-u dardkashlik kabi qadriyatlar o‘z ifodasini topgan. Masalan, birgina “Kiyik”, “Yoriltosh”, “Ochil, ochil qamishlar”, “Oltin tarvuz”, “Mehrigiyo” [12] kabi xalqimiz ertaklari yoki “Yer — xazina, suv — gavhar”, “Yerga mehr — elga mehr”, “Yer boyligi — el boyligi”, “Sen yerni yer qilsang, yer seni sher qilar”, “Suv — zar, suvchi — zargar” [13] kabilar fikrimizga dalildir.

Tabiat mulkiga mulk qo‘shish, dehqonchilik, bog‘dorchilik bilan bog‘liq qadriyatlar ham xalq badiiy tafakkur olamida o‘z ifodasini topgan. Masalan, “Urug‘ eksang, namga ek, namga ekmasang, tomga ek”, “Suv keldi — nur keldi”, “Chilla suvi — tilla suvi”, “Qirq kun yoqqan yog‘indan, yelib o‘tgan suv yaxshi” [14] kabi xalq maqollari bu boradagi fikrimizga dalildir.

Tabobatga doir “Toza havo — dardga davo”, “Tog‘ havosi — dard davosi”, “Tarvuz — davo, qovun — sabo”, “Sigirli uyda sil bo‘lmas”, tabiat fasllarini kuzatish natijasida: “Aziz momo olti kun, qahri kelsa — yetti kun”, “Aqrab keldi aqirib, sovuqlarni chaqirib”, “Ahman-dahman olti kun, qahriga olsa qattiq kun”, “Dalv kirdi, ekinlarga davr kirdi”, “Javzoning yarmida suv tagida arpa pishar”, “Laylak kelmay, yoz bo‘lmas, qirg‘iyoq chopmay, kuz bo‘lmas”, “Laylak kelsa — yorug‘ yoz, turna kelsa — tiniq yoz”, “Navro‘zdan so‘ng qish bo‘lmas, mizondan so‘ng yoz bo‘lmas”, “Savr yomg‘iri — sariq oltin”, “Savr kirdi — ekinlarga davr kirdi”, “Toqqa yog‘sa, cho‘l obod, cho‘lga yog‘sa, el obod”, “Toqqa qalin qor tushgani — yerning qonib suv ichgani”, “Yaxshi kelsa — hut, yomon kelsa — yut”, “Yaxshi kelsa hut — kadi-kadi sut”, “Qarg‘a ketmay, qor ketmas, turna kelmay, muz ketmas”, “Qishning qori — yozga dori”, “Quruq ayoz — tilsiz yov”, “G‘oz kelgani — yoz kelgani”, “Hamal kirdi — amal kirdi” [15].

Tabiat kuchlarini ilohiylashtirib, muqaddas bilish, unga topinish, madad so‘rash ibtidoiy inson tafakkuri olami bilan bog‘liq bo‘lib, mifologik va animistik tasavvurlarni aks ettirgan. “Mitra”, “Anaxita”, “Umayxotin” kabi asotirlar yaratilgan chog‘ida hali falsafiy ta‘limotlar tizimi, ixtisoslashgan san‘at turlari, badiiy adabiyot to‘liq shakllanmagan bo‘lsa-da, biroq ular diniy, axloqiy, falsafiy dunyoqarash elementlari asosidagi ekologik qadriyatlarni fragmentar, diskret, sodda stixiyali tarzda o‘zida aks ettirgan.

Xulosa. Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki:

birinchidan, badiiy adabiyot qadim-qadimdan ham o‘zida ekologik qadriyatlarni namoyon etish orqali nafaqat insonning ma‘naviy dunyosini boyitishga, estetik ehtiyojini qondirishga, balki ekologik dunyoqarashini shakllantirish, rivojlantirish, yuksaltirishdek o‘ta muhim ijtimoiy funksiyani hamisha bajargan va bunday an‘anasini davom ettirmoqda;

ikkinchidan, milliy ekologik qadriyatlarning badiiy adabiyotda namoyon bo‘lishi mavsumiy emas, balki barcha davrlarga xos xususiyatdir;

uchinchidan, insoniyat tarixiy taraqqiyoti davomida buzg‘unchi, zo‘ravon mafkuralardan xoli milliy va umuminsoniy ekologik qadriyatlarni o‘zida aks ettirgan badiiy adabiyot insoniylikka xos sog‘lom ekologik va insoniylik tabiatiga zid bo‘lgan antieologik faoliyatni yuksak badiiy obrazlilikda taqqoslab ko‘rsatish orqali bashariyat kishilarini tabiatni sevish, uni asrab-avaylash kabi ma‘naviy-axloqiy kamolotga da‘vat etib kelgan;

to‘rtinchidan, bizgacha yetib kelgan eng qadimgi xalq og‘zaki va yozma adabiyoti hamda o‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari milliy va umumbashariy ekologik qadriyatlar bilan ziynatlangan;

beshinchidan, qomusiy allomalar, buyuk ijodkorlar Ibn Sino, M. Qoshg‘ariy, Yu. X. Hojib, N. Xisrav, A. Yassaviy, U. Xayyom, A. Jomiy, A. Navoiy, Z. M. Bobur, M. Sh. Maxmur, M. Sh. Gulxaniy, M. A. Muqimiy, Z. H. Furqat, M. R. Ogahiy va boshqalarning adabiy asarlarida milliy, mintaqaviy, umumbashariy ekologik qadriyatlarning eng sara falsafiy teran jihatlarini o‘z ifodasini topgan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Aytmatov Ch., Shohonov M. Cho‘qqida qolgan ovchining ohi-zori (Asr adog‘ida aytilgan istig‘for). – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati, 1998. – B. 139.
2. Rumi J. Uchmoqqa qanotim yo‘q, vale uchgayman. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1994. – B. 3–5.
3. Abdurahmon Jomiy. – URL: <https://ziyouz.uz/jahon-sheriyati/fors-tojik-sheriyati/abdurahmon-jomiy/>
4. Karimov I. A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta‘minlash – bizning oliy maqsadimiz. – T. 17. – Toshkent: O‘zbekiston, 2009. – B. 249.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida: PF–158-son Farmon. – 2023-yil 11-sentabr. – URL: <https://lex.uz/>
6. Rahmonov N., Boltaboyev H. O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari. 1-jild. – Toshkent: Fan. – B. 10–15.
7. O‘zbek adabiyoti tarixi. I tom (eng qadimgi davrlardan XV asrning II yarmigacha). – B. 24–28.
8. Erkaev A. Milliy g‘oya va ma‘naviyat. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2002. – B. 85–86.
9. Rahimov M. // Tafakkur. – Toshkent, 2009. – № 3. – B. 96–103.
10. O‘zbek xalq ertaklari. – URL: <https://ziyouz.uz/ozbek-xalq-ogzaki-ijodi/ozbek-xalq-ertaklari/>
11. O‘zbek xalq maqollari (yil fasllari va tabiat hodisalari haqida). – URL: <https://ziyouz.uz/hikmatlar/ozbek-xalq-maqollari/yil-fasllari-va-tabiat-hodisalari-haqida-maqollar>